

TEMPORAL OLAM MANZARASIDA KOGNITIV METAFORANING ISHLATILISHI

Axmedova Matluba Ibragimdjonovna, Ph.D

FarDU katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sotvoldiyeva Muattarxon Ikromjon qizi

FarDU o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: temporal olam, til, manzara, kognitiv, metafora, qarash, tasvir-tarjima, prognoz, nisbiy.

Annotatsiya

Mazkur maqolada "Temporal olam manzarasida metaforaning ishlatilish tushunchasi nimaligi hamda uning o'zbek va ingliz tillaridagi farqlari" haqida fikr-mulohazalar keltirildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

KIRISH

Zamonaviy kognitiv fanda metaforaga tushuntirish, baholash, qabul qilish va idrok etish kabi psixik jarayonlarning asosi sifatida qaraladi. Inson metafora yordamida o'z fikrini bayon etibgina qolmay, ularning estetik imkoniyatlaridan foydalanadi, shuningdek, metafora bilan fikr yuritadi, ular yordamida o'zi yashab turgan olamni o'rganadi. Metaforalar bizga qabul qiluvchining ongida mavjud bo'lgan dunyoning lingvistik suratini o'zgartirishga, yaxshi tanish bo'lgan hodisalarni yangicha toifalar bilan tanishtirishga yordam beradi. Bunda metaforaning estetik salohiyati, borliqni emotsional baholash qobiliyati muhim ro'l o'ynaydi. Kognitiv metafora nazariyasining tobora yangi modifikatsiyalarining ortib borishi ushbu ilmiy yo'nalish tarixini, hozirgi holati va kelajakdagi rivojlantirish istiqbollari har tomonlama tushunishni talab qiladi.

Bugun tilshunoslikda metafora haqida yetarlicha bilim va ko'nikmalar mavjud bo'lishiga qaramay, unga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Bu esa, til va psixik hodisalarning o'zaro ta'siridagi tadqiqotlarning dolzarblashuvi tufayli metaforologiyaning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tishi bilan bog'liqdir. So'nggi paytlarda metafora hodisasiga faylasuflar, mantiqchilar, sotsiologlar, psixologlar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar va gumanitar fan vakillari ham muntazam ravishda murojaat qilmoqdalar. Ushbu metaforologik bunga turtki bo'lib, metaforaning kognitiv nazariyasida o'z ifodasini topgan metafora mohiyati haqidagi yangi g'oyalar edi. O'tgan asr so'nggida E.S.Kubryakova "Kognitiv fan bu- dunyoni idrok etish, tasniflash, baholash va tushunish doirasida bilimlarni aks ettirish va saqlashni o'rganadigan fan"dir deb yozadi [5,34]. Kognitiv metaforalar nazariyasiga ko'ra, metaforalashtirish asosida bilim tuzilmalari (freym va ssenariylar) o'rtasidagi o'zaro aloqa jarayoni yotadi. J.Lakoff hamda M.Jonson fikriga ko'ra, verbal tuzilmada eksplitsit ifodalanmagan mazmun freymlar haqidagi bilimlar asosida keltirib chiqariladi.

Hozirgi vaqtda kognitiv metaforalar nazariyasi ko'plab sohalarga tatbiq etilgan bo'lib, bilish, tushunchani kategoriyalashtirish, kontseptuallashtirish, baholash va olamni tushuntirishning samarali

usullaridan biri hisoblanadi. Kognitiv metaforalar haqidagi nazariyalarga asoslanib, bu hodisaga quyidagicha ta'rif berish mumkin: kognitiv metafora – shaxs kognitiv faoliyatiga xos hodisa bo'lib, bir tushuncha yoki hukm haqidagi bilim tuzilmalari asosida ikkinchi tushuncha yoki hukmni kontseptuallashtirishdir. Masalan: Matvey Semyonovich yal-yal yonayotgan qip-qizil, yirik yoqutni ta'zim bilan olar ekan, uning qiymati juda baland ekanini sezdi (P.Qodirov. “Humoyun va Akbar” romani) gapidagi baland so'zining metaforik ma'noda qo'llanishiga matn tuzuvchining tezaurusida uzual holatda mavjud bo'lgan NARX BU – VERTIKAL UZUNLIK tuzilishidagi kognitiv metafora asos bo'lgan. Buni nutqimizda qo'llanuvchi narxi pasaydi, narxi o'rtacha, narxi baland, narxi osmonda kabi birikmalar ham isbotlaydi.

J.Lakoff va M.Jonson tadqiqotida tahlil etilgan vaqt bu – pul, vaqt bu – cheklangan zaxira, vaqt bu – qimmatbaho buyum kognitiv metaforalari o'zbek tilida so'zlashuvchi nutq egalari tezaurusida ham mavjudligi (Masalan: Bu ishga ko'p vaqt sarfladim; Vaqtim tugay deyapti; Behuda ishlar vaqtini o'g'irlyadi)[1] bir qator kognitiv metaforalarning kognitiv-semantik universalisiya ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Metafora. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Metafora ko'chma ma'no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo'lib, mumtoz adabiyotshunosligimizda «istiora» deb yuritilgan. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: lingvistik metafora va xususiy-muallif metaforalari. Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Bunday metaforalar asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo'yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi hamda yangi tushunchalarni atash uchun xizmat qiladi. Masalan: odamning oyog'i – stolning oyog'i, odamning ko'zi – uzukning ko'zi, ko'ylakning etagi – tog'ning etagi kabi. Xususiy-muallif metaforalari esa yozuvchining estetik maqsadi, ya'ni borliqni subyektiv munosabatini qo'shib ifodalagan holda nomlashi asosida yuzaga keladi. Ular uslubiy jihatdan bo'yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg'ularini ta'sirchan, yorqin bo'yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma'no mavjud bo'ladi. Metafora orqali ma'no ko'chishida konnotativ ma'no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo'y, it, bo'ri, tulki, yo'lbars, boyo'g'li, musicha, burgut, lochin, qaldirg'och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo'lgan leksemalar mavjudki, bu so'zlar o'z ma'nosidan tashqari, ko'chma ma'noda juda keng qo'llanadi. Metafora bilan o'xshatish konstruktsiyaning o'zaro farqi haqida tilshunoslarimiz o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. Ularda asosan quyidagi farqlar sanab o'tiladi: 1. O'xshatishda so'zlar o'z ma'nosi bilan ishtirok etadi. Metaforada so'zlar doimo ko'chma ma'noda bo'ladi. 2. O'xshatishda ikki komponent - o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz qiyoslanadi. Metafora esa bir komponentli bo'ladi. 3. O'xshatishlarda kengayish imkoniyati ko'p, bir gap hatto abzas darajasida kengayishi mumkin. Metaforalar esa so'z yoki so'z birikmasidan iborat bo'ladi. 4. O'xshatishda maxsus ko'rsatkichlar bo'ladi: -dek, -day, -simon, -larsha, kabi, singari, o'xshamoq va boshqalar. Metaforalarda bunday ko'rsatkichlar bo'lmaydi. Buni quyidagi misoldan ham ko'rish mumkin: Karim tulkiday ayyor odam. O'xshatish konstruktsiya. Bunda Karim – o'xshatish subyekt, tulki-o'xshatish etaloni, ayyor-o'xshatish asosi, -day – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Bu to'liq o'xshatish. Karim – tulki. Bu qisqargan o'xshatish, chunki gapda o'xshatish asosi (qaysi xususiyati o'xshashligi) va ko'rsatkichi ifodalanmagan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ayrim manbalarda metaforalarning mazmuniy jihatdan uch turi mavjudligi aytiladi: odatiy, jonlantirish va sinestetik metaforalar. Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir. Jonlantirish badiiy nutqqa obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir. «Badiiy san'atlar» kitobi mualliflari bu haqda shunday yozadilar: «Jonlantirish – istioraning bir ko'rinishi.

Jonlantirish odamlarga xos bo'lgan hislatlarni jonsiz predmetlar, tabiat hodisalari, hayvonot, parranda, qush kabilarga ko'chirish orqali paydo bo'ladigan tasvir usulidir». «O'zbek tili stilistikasi»da ham «kishilarning harakatlari, his-tuyg'ulari, so'zlash va fikrlashlari jonsiz predmetlarga ko'chirilishi»ga jonlantirish deyilishi ta'kidlanadi. Mumtoz adabiyotimizda jonlantirishning ikki turi farqlangan: 1. Tashxis – shaxslashtirish, jonsiz narsalarni insonlarday qilib tasvirlash. She'riyatda jonlantirishdan voqelikni obrazli tasvirlash maqsadida foydalaniladi. Tasvir obyektiga kitobxonni yaqinlashtirish, voqelikning anglanishini osonlantirish va quruq-rangsiz ifodadan qochish uchun ham mazkur usulga murojaat qilinadi.

Yoxud jonsiz narsaga insonga murojaat qilgandek munosabatda bo'lish ham jonlantirishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda bu hodisa apastrofa deb yuritiladi. Bunda narsa – buyum jonlantirilmaydi, faqat jonli deb tasavvur qilinadi. Bu usuldan qahramonning hech kimga aytolmagan ichki dardlarini, sirlarini oshkor qilishda foydalaniladi.

2. Intoq – nutq sohibi sifatida tasvirlash, insonlardek gapirtirish demak. Intoq bolalarga atalgan she'r va hikoyalarda, ertak va masallarda ko'p qo'llaniladi. Intoq san'atidan masallarda alohida maqsad bilan foydalaniladi. Insonlarga xos ba'zi qusurlar, kamchiliklar narsa-buyumlar misolida obrazli qilib ko'rsatib beriladi. Yevropa adabiyotshunoslik ilmida allegoriya deb ataladigan ko'chim ham «gapirtirish» usuliga asoslanadi. Intoq-jonlantirishda narsa va buyumlar, hayvonlar insonlardek gapiradi. Allegorik-jonlantirishda hayvon va jonivorlar insonlar kabi harakat qiladi, ular kabi gapiradi. O'quvchi esa asosiy e'tiborini shu hayvonlar orqali tasvirlanayotgan inson obraziga qaratadi. Demak, allegoriyada obrazlar sistemasi ikki qator hisoblanadi, ya'ni asarda tasvirlanayotgan hayvonlar obrazlari qatori va ular orqali shu xarakterdagi kishilar qatori.

XULOSA

Bu yondashuv metaforaning kognitiv va diskursiv o'lchamlari o'rtasida katta farq mavjud emasligi to'g'risidagi tezisga asoslanadi. Shunga ko'ra, tadqiqotchilarning asosiy harakatlari metaforaning kognitiv va diskursiv xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Metafora bir vaqtning o'zida ham aqliy ham linguo-ijtimoiy hodisadir. Masalan, siyosiy matnlarni o'rganib shunga xulosa qilishimiz mumkin, mahsus metaforaning yolg'iz kognitiv yoki yog'iz diskursiv tarafdin tasniflash metafora imkoniyatlarini to'laligicha ochib bera olmasligi mumkin [3,7]. Hozirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, metafora tahliliga kognitiv yondashuv metaforologiyada muhim ro'l o'ynaydi, biroq kognitiv nazariyaning ko'p taraflari hali ham noma'lumligicha qolmoqda. J.Lakoff va M.Johnson ilgari surgan g'oyalari butun dunyo bo'ylab keng tarqaldi va ko'plab amaliy natijalarga erishildi. Shu bilan birga, bu nazariya KO'plab ilmiy maktablar va yo'nalishlarda o'rganilib talqin qilinmoqda, keyingi rivojlanishlar uchun yangi usul va metodlar ishlab chiqilmoqda.

REFERENCES

1. Khoshimova, N. A. (2021). ASSOCIATIVE FIELDS OF THE COLLECTIVE AND INDIVIDUAL CONSCIOUS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 436-439.
2. Bahridinov, M. M., Turgunov, D. B., & Tojiboyev, I. M. (2020). SOME PROBLEMS OF LEXICAL INVESTIGATION OF THE NOVEL ULYSSES BY JAMES JOYCE. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 208-212.
3. Isaqjon, T. (2022). Strategies and techniques for improving EFL learners' reading skills. *Involta Scientific Journal*, 1(11), 94-99.
4. Madaliyevna, I. S., & Khasanovna, G. D. (2021). Comparative study of "assessment system" in the semantic field of "education". *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 969-973.
5. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o'zbek tillarining funktsional uslublari. *Молодой ученый*, (19), 584-585.

6. Xoshimova, N. (2019). External factors of associations' individuality. *Scientific journal of the Fergana State University*, 2(2), 134-136.
7. Muhammadiyeva, H., Mahkamova, D., Valiyeva, S., & Tojiboyev, I. (2020). The role of critical thinking in developing speaking skills. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 62-64.
8. Azamovna, A. M. (2021). Solution Of Logistics Issues on The Basis of Intellectual Analysis Methods of Suppliers. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 3, 151-152.
9. Ahundjanova, M. (2022). THE NEEDS FOR IMPROVING LEARNERS' AUTONOMY IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES—AS A KEY FACTOR TO BOOST LANGUAGE LEARNERS. *Science and innovation*, 1(B6), 390-392.
10. Nozima, G. (2021). Замонавий тилшуносликда термин тушунчаси ва кўп компонентлик терминларнинг тахлили. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).
11. Madaliyevna, I. S., & Khasanovna, G. D. (2021). Comparative study of “assessment system” in the semantic field of “education”. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 969-973.
12. Mirzaaliyev, I., & Oxunov, A. (2021). EKVIVALENTSIZ LEKSIKANING O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IFODALANISHI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 209-212.
13. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 5(4).
14. Pakirdinova, S. A., & Qurbonova, M. (2019). IJTIMOIIY TARMOQLAR OMMALASHUVI. *Интернаука*, (36), 70-72.